BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02.RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

MAMATOV TUXTAMUROD OTAMURODOVICH

GLOBAL IJTIMOIY- SIYOSIY TAHDIDLAR SHAROITIDA YOSHLAR IJTIMOIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING FALSAFIY XUSUSIYATLARI

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

FALSAFA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

UO‘K: 101.1:316.334.3:316.48-053.6(575.1)

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по философским наукам

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on philosophical sciences

Mamatov Tuxtamurod Otamurodovich
Global ijtimoiy-siyosiy tahdidlar sharoitida yoshlar ijtimoiy xavfsizligini ta’minlashning falsafiy xususiyatlari 5

Маматов Тухтамурод Отамуродович
Философские особенности обеспечения социальной безопасности молодежи в условиях глобальных социально-политических угроз 23

Mamatov Tukhtamurod Otamurodovich
Philosophical features of ensuring youth social security in the context of global socio-political threats.....47

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of works published.....52

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02.RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

MAMATOV TUXTAMUROD OTAMURODOVICH

GLOBAL IJTIMOIY- SIYOSIY TAHDIDLAR SHAROITIDA YOSHLAR IJTIMOIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING FALSAFIY XUSUSIYATLARI

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Fal1596 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Samadov Aktamkul Rafikovich** falsafa fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Choriyev Sanjarbek Anvarovich** falsafa fanlari doktori, professor
	Turayev Shavkat Nishonovich falsafa fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Navoiy davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.08.02. raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “21” noyabr soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200118, Buxoro tumani, Galaosiyo shahri, Ibn Sino ko‘chasi 1-uy (Xalqaro tadqiqotlar markazi), Tel.: (99865) 221-29-14; faks: (99865) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (0/1111- raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65)221-29-14; faks: (65) 221-29-14.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “7” noyabr kuni tarqatildi.

(2026-yil “7” noyabr dagi 40 raqamli reyestr bayonnomasi.)

B.B. Namozov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, falsafa fanlari doktori, professor

A.Z. Sharipov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, falsafa fanlari doktori, professor

N.O. Safarova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda geosiyosiy ziddiyatlar, zo‘ravonlik g‘oyalari va axborot manipulyatsiyasi yoshlarning ijtimoiy xavfsizligini ta’minlash masalasiga inson va jamiyat munosabatlari nuqtayi nazaridan yondashishda ularning hayotiy maqsadlari, ijtimoiy mansubligi, qadriyatlarga munosabati hamda kelajakka ishonchini hisobga olishni talab etmoqda. Shu jihatdan yoshlar ijtimoiy xavfsizligini ta’minlash ularni tahdidlardan himoyalash bilan birga, mustaqil hayotiy tanlovini amalga oshirishi va jamiyatda faol ishtirok etishi uchun zarur sharoitlarni yaratishni taqozo etadi. Bu jarayonda global tahdidlar ta’sirini kuchaytiruvchi ziddiyatlarni aniqlash, himoyalanganlik va shaxs erkinligi o‘rtasidagi mutanosiblikni asoslash, yoshlarning ma’naviy barqarorligi va ijtimoiy mas’uliyatini adolatli munosabatlar hamda inson qadr-qimmatini ro‘yobga chiqarish imkoniyatlarini asoslab berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani, ilmiy tadqiqotlar markazlari, aql markazlarida yoshlar ijtimoiy xavfsizligiga tahdidlar, siyosiy radikallashuv va ekstremistik g‘oyalar, axborot urushlari va manipulyativ media, identiklik inqirozi, migratsiya va madaniy moslashuv muammolari, raqamli muhitda psixologik xavfsizlik masalalariga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. “Youth, Peace and Security” dasturi asosida yoshlarni ekstremizm, radikalizm, zo‘ravonlikdan himoyalash, madaniyatlararo muloqot va bag‘rikenglik, soxta axborotga qarshi tanqidiy tafakkur shakllantirish tamoyillari shaxsning ijtimoiy muhit bilan munosabati, mustaqil qaror qabul qilishi va manipulyativ axborotga munosabatini belgilamoqda. Shu bois yoshlar xavfsizligini ta’minlashda ijtimoiy adolat va ishonchning ma’naviy immunitet bilan aloqasi, milliy identiklikni saqlash va madaniy ochiqlik o‘rtasidagi mutanosiblikni aniqlashtirish, xavfsizlikning obyektiv kafolatlari sifatida davlat, fuqarolik jamiyati institutlari va oila hamkorligining tamoyillarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

O‘zbekistonda yoshlar ijtimoiy xavfsizligini ta’minlash masalasi mamlakatimizning strategik taraqqiyot yo‘nalishlari, milliy xavfsizlik konsepsiyasi bog‘liq bo‘lib, bu sohada ma’lum chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “Keng miqyosli qarama-qarshiliklar, mojaro va ziddiyatlarni kuch ishlatish orqali hal etishga bo‘lgan intilishlar oqibatida global xavfsizlik va barqaror taraqqiyotga tahdidlar kun sayin chuqurlashib bormoqda. Ko‘z o‘ngimizda dunyoning butunlay yangi, beqaror, xavotirli geosiyosiy va geoiqtisodiy arxitekturasi shakllanmoqda. … Dunyoda hech bir xalq o‘zgalardan uzilib, o‘z holicha yashay olmaydi. Bugun paydo bo‘layotgan global muammolardan xalos bo‘lish uchun nafaqat muayyan mintaqa darajasida, balki umumjahon miqyosida hamjihat harakat qilish taqozo etiladi. Buning uchun amaliy hamkorlik ruhini qayta tiklash, bashariyat manfaatlarini har qanday ziddiyatlardan yuqori qo‘ygan holda, yagona maqsad yo‘lida birlashish lozim”[1]. Shu sababli global ijtimoiy-siyosiy tahdidlar sharoitida yoshlar ijtimoiy xavfsizligini ta’minlashda ijtimoiy adolat, ma’naviy immunitet va fuqarolik madaniyatining o‘zaro aloqadorligini asoslash muhim ahamiyat kasb etadi.

[1] Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. – Тошкент:“O‘zbekiston”, 2026. – Б.6.

O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-406-son “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”, 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida” qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-sonli “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-sonli “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-sonli “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-son “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi 312-son “Yoshlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**,** 2021-yil 18-yanvardagi 23-sonli “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-sonli “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo’llari” nomli ustuvor yo’nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning asarlari va nutqlarida yoshlarning huquq va manfaatlarini ta’minlash, intellektual salohiyatini rivojlantirish, ularni ma’rifat hamda bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Yoshlar ongu tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish vazifasi ilgari surilib, yoshlar huquqlariga oid xalqaro konvensiyani ishlab chiqish taklif etilgan. Yosh avlod kamoloti ta’lim-tarbiya sifati, yaratiladigan shart-sharoitlar va ijtimoiy yuksalish imkoniyatlari bilan bog‘liq holda talqin qilingan[2]. Mazkur qarashlar ushbu tadqiqotda yoshlar ijtimoiy xavfsizligini ma’naviy tarbiya, huquqiy himoyalanganlik va shaxsiy salohiyatni ro‘yobga chiqarish imkoniyatlarining o‘zaro aloqadorligida o‘rganish uchun konseptual ahamiyat kasb etadi.

[2] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashr. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023. –B. 416.; Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2023. –B.408.; Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. 6-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2023. –B. 536.; Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2024. –B. 512.

Global ijtimoiy-siyosiy tahdidlar sharoitida yoshlar ijtimoiy xavfsizligini ta’minlash masalasi globallashuv, ijtimoiy xatar, shaxs identikligi, ma’naviy barqarorlik va fuqarolik ishtirokiga oid tadqiqotlar bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu yo‘nalishdagi ilmiy adabiyotlarda xavfsizlikning ijtimoiy shart-sharoitlari, tahdidlarning xususiyatlari hamda shaxsning o‘zgaruvchan muhitga munosabati turli yondashuvlar asosida o‘rganilgan. Mavzuga aloqador tadqiqotlarni xorijiy, mintaqaviy va O‘zbekiston olimlarining ishlari doirasida guruhlashtirish ularning ilmiy hissasi hamda mazkur dissertatsiyaning tadqiqot yo‘nalishini aniqlashtirish imkonini beradi.

Birinchi guruhni xorijiy olimlarning zamonaviy jamiyatdagi xatarlar, shaxsning o‘zligini anglashi va mustaqil faoliyati bilan bog‘liq tadqiqotlari tashkil etadi. Jumladan, U.Bek, E.Giddens tadqiqotlarida shaxsning ijtimoiy muhitga ishonchi, R.Rayan va E.Desi avtonomiya, kompetentlik va shaxsiy rivojlanish, G.Pennikuk xabar aniqligiga e’tiborni yo‘naltirish, J.Ruzenbek manipulyativ usullarni o‘rganishgan. T.Adornoning madaniyat industriyasi, Z.Bauman kuch markazlari o‘rtasidagi nomutanosiblik, J.Habermas global tahdidlarni zamonaviy kommunikatsion tizimlari, Byung-Chul Han, U.Mignolo madaniy ekspansiya esa zamonaviy global ong, Dipesh Chakrabartya Yevropani tarixdan chetlatish g‘oyasi, N.Klein tafakkurni parchalash, inqirozni normallashtirish, J.Baudrillard ideologik zaiflik, simulyakrlar[3], J.Butler yoshlar ijtimoiy adaptatsiyasi, A.Giddens xavfsizlik, barqarorlik, Ch.Taylor, A.Toffler axborot shoklari, E.Fromm erkinlikdan qochish sindromi, F.Fukuyama ijtimoiy xavfsizlikning zamonaviy talqini kabi masalalarni o‘z ilmiy ishlarida aks ettirishgan[4].

Ikkinchi guruhga MDH olimlarining globallashuv, xavfsizlik va barqaror rivojlanish munosabatlariga bag‘ishlangan tadqiqotlari kiradi. A.N.Chumakov turli kuchlar va manfaatlarning o‘zaro munosabati, A.D.Ursul va A.L.Romanovich xavfsizlikni ta’minlash barqaror rivojlanish istiqbollari tadqiq etilgan. A.S.Maydanov, V.Inozemsev, V.T.Ganjin, A.G.Spirkin, R.F.Avdeyeva, T.A.Alekseyev, Yu.A.Nisnevich, V.Slipchenko, V.V.Sogrin, I.A.Krilova, V.Krisko, Yu.Kuznesov, Ye.P.Kojushko, Yu.Kuznetsov, V.Nikolskiy kabi olimlar tomonidan

---

[3] Baudrillard, J. Simulacra and Simulation. Michigan: University of Michigan Press, 1994. – P. 6.

[4] Beck U. Risk Society: Towards a New Modernity. — London: SAGE Publications, 1992; -P.15. Giddens A. Modernity and Self-Identity: Self and Society in the Late Modern Age. — Cambridge: Polity Press, 1991.; -P. 14. Ryan R. M., Deci E. L. Self-Determination Theory and the Facilitation of Intrinsic Motivation, Social Development, and Well-Being // American Psychologist. — 2000. - Vol. 55, № 1. - P. 68–78.; Pennycook G. et al. Shifting attention to accuracy can reduce misinformation online // Nature. — 2021. — Vol. 592. — P. 590–595. — DOI; Roozenbeek J. et al. Psychological inoculation improves resilience against misinformation on social media // Science Advances. — 2022. — Vol. 8, № 34.; Adorno, T. & Horkheimer M. Dialectic of Enlightenment. – Stanford, Californiya. “Stanford University Press”, 2002. – P. 95; Bauman, Z. Liquid Modernity.– Malden. “Polity Press”, 2000. – P. 13; Habermas, J. The Postnational Constellation: Political Essays.- Cambridge, MA: MIT Press, 2001. – P. 115.; Han, B.-C. Psychopolitics: Neoliberalism and New Technologies of Power. London: Verso Books, 2017. – P. 18.; Mignolo, W. The Darker Side of Western Modernity: Global Futures, Decolonial Options. Durham: Duke University Press, 2011. – P. 56.; Chakrabarty, D. Provincializing Europe: Postcolonial Thought and Historical Difference. Princeton University Press, 2000. – P. 27.; Klein, N. The Shock Doctrine: The Rise of Disaster Capitalism. Metropolitan Books, 2007. – P. 168.; Baudrillard, J. Simulacra and Simulation. Michigan: University of Michigan Press, 1994. – P.6.; Butler, J. Undoing Gender. New York: Routledge, 2004. – P.33.; Giddens, A. Modernity and Self-Identity: Self and Society in the Late Modern Age. Stanford University Press, 1991. – P. 38.; Taylor, C. The Ethics of Authenticity. Harvard University Press, 1992. – P.36.; Тоффлер Э. Шок будущего. – Москва: АСТ, 2003. – С. 317.; Фромм Э. Бегство от свободы. – Москва: Академический проект, 2004. – С. 102.; Фукуяма Ф. Конец истории и последний человек. – Москва: АСТ, 2004. – С. 79

ham globallashuv jarayonida yoshlar ijtimoiy-siyosiy xavfsizligi, global tahdidlarning o‘rni chuqur o‘rganilgan[5].

Uchinchi guruhni O‘zbekiston olimlarining globallashuv, milliy-ma’naviy xavfsizlik va mafkuraviy jarayonlarga oid ishlari tashkil etadi. S.Otamurotovning globallashuv sharoitidagi milliy-ma’naviy xavfsizlik, J.Yaxshilikov va N.Muhammadiyevning globallashuv sharoitidagi mafkuraviy jarayonlar va milliy g‘oyaning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rniga oid tadqiqotlar yoshlar ijtimoiy xavfsizligining milliy qadriyatlar, ma’naviy tarbiya va g‘oyaviy ta’sirlar bilan bog‘liq tomonlarini o‘rganishda ahamiyat kasb etadi. M.Abduraxmonov ijtimoiy xavfsizlik tushunchasining falsafiy mohiyatini, R.Samarov, M.Qahharova, M.Musaevning tadqiqotida ogohlantiruvchi nazariy pozitsiyalar ilgari surilgan. A.Aripov yoshlar ongini buzg‘unchi g‘oyalardan himoya qilishda bag‘rikenglik, J.Iymanov Markaziy Osiyo davlatlaridagi ijtimoiy barqarorlik va ma’naviy xavfsizlikni mustahkamlash, M.Xolmirzayeva, O.Maxammatov, B.J.Biyimbetov, S.A.Choriyev va Sh.N.Turayevr axborot xavfsizligi konsepsiyasi orqali yoshlarning turli tahdidlarga nisbatan immunitetini barqarorlashtirish, ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlik bilan uyg‘unlikda tadqiq qilingan[6].

Ko‘rib chiqilgan tadqiqotlar global xatarlarning ijtimoiy tabiati, shaxs identikligi, qadriyatlarni o‘zlashtirish va axborot ta’sirini baholashga oid muhim nazariy hamda empirik asoslarni ifodalaydi. Ammo ularda global tahdidlarning yoshlar hayotiga ta’sirini ichki ijtimoiy ziddiyatlar bilan bog‘liq holda tushuntirish, xavfsizlikning obyektiv shart-sharoitlari, ijtimoiy adolat, ma’naviy immunitet

---

[5] Чумаков А. Н. Глобализация. Контуры целостного мира. - 3-е изд., перераб. и доп. - Москва: Проспект, 2017. –С. 448.; Урсул А. Д., Романович А. Л. Концепция устойчивого развития и проблема безопасности.; Кузнецов Ю., Никольский В. Введение в теорию национальной безопасности. – Москва: Культура – Сеть, 2000. – С. 395.; Майданов А.С. Миф как источник знания. // Вопросы философии. –Москва: 2004. № 9. - С. 91-105. Вестернизация как глобализация и «глобализация» как американизация. // Вопросы философии. 2004. №4. – С. 58-69; Крылова И.А. Проблема безопасности России в контексте глобализации. –Москва: Институт философии РАН, 2001. – С. 226.; Крысько В. Секреты психологической войны. –Москва: Наука, 1999. – С. 168.

[6] Abduraxmonov M. Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligi masalalariga ijtimoiy-falsafiy yondashuv. - O'zbekiston, Toshkent: Ijtimoiy-gumanitar sohada ijtimoiy-innovatsion tadqiqotlar, Jild-.3, № 5, 2026.- B. 216-218.; Otamurotov S. Globallashuv ва milliy-ma’naviy xavfsizlik. – Toshkent: “O’zbekiston”, 2013. – Б. 45–67.; Samarov R. Xavfsizlikning metodologik asoslari. – Тошкент: “Akademiya”, 2010. – B. 29–41.; Qahharova M. Jamiyatda ma’naviy-axloqiy muhit: muammo va yechimlar. – Тошкент: O‘zMU, 2012. – B. 20–39.; Yaxshilikov J., Muhammadiev N. Milliy g‘oya – taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: “Fan”, 2017. – B. 44–58.; Musayev M. Globallashuv sharoitida missionerlik va prozelitizmning jamiyat xavfsizligiga tahdidi. – Toshkent: O‘zMU, 2018. – B. 17–35; Aripov A.A. Yoshlar ma’naviy xavfsizligini ta’minlashda bag‘rikenglik fenomenini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari: ijtimoiy-falsafiy tahlil. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand: Sharof Rashidov nomidagi SamDU, 2023. – B. 5–6.; Iymanov J.S. Markaziy Osiyoda ma’naviy barqaror muhit istiqbollari: muammo va yechimlar (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Andijon, 2023. – B. 5–7; Xolmirzayeva M.A. O‘zbekistonning milliy manfaatlarini himoya qilishda g‘oyaviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlash qonuniyatlari. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2024. – B. 5–6.; Maxammatov O.S. Global ijtimoiy-madaniy jarayonlarda O‘zbekiston yoshlarining ma’naviy-mafkuraviy xavfsizligini ta’minlashning ijtimoiy falsafiy xususiyatlari. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Samarqand, 2022, – B. 6; С.А.Чориев. Шахс сиёсий ижтмоийлашуви.- Қарши: “Big Makro World”, 2025.-B. 96.; Sh. N. Turayev. Globallashuv va mafkuraviy tahdidlar. Falsafa va hayot xalqaro, - Toshkent, 2022. B. 9-14.; Karimov E.S. Raqamli dunyoda yoshlar ma'naviy xavfsizligini ta'minlash. - Toshkent, “O'zbekiston”. "Globallashuv sharoitida yoshlar ma'naviyati" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari, 2026. - B.70-73.; Yusubov J., Boymurodov S. Globallashuv jarayonida yoshlar mafkuraviy immunitetini shakllantirish zarurati. - Qo'qon, O'zbekiston - Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar jurnali, 8-jild, 2-son, 2026. -B. 863-868.

hamda fuqarolik madaniyatining o‘zaro aloqadorligini asoslash amalga oshirilmagan. Mazkur tadqiqotda global ijtimoiy-siyosiy tahdidlarning yoshlar ijtimoiy xavfsizligiga ta’sirini ochib berish, O‘zbekiston sharoitida yoshlar ijtimoiy xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishlarini asoslashga ustuvor ahamiyat beriladi.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbekiston hududlaridagi tarixiy-madaniy an’analar va ularning zamonaviy ko‘rinishlarini targ‘ib etuvchi platforma yaratish” (2022-2026 yy.) tadqiqot yo’nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi global ijtimoiy-siyosiy tahdidlar sharoitida yoshlar ijtimoiy xavfsizligini ta’minlashning falsafiy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ijtimoiy xavfsizlik tushunchasining falsafiy mazmun-mohiyatini va yoshlar hayotida namoyon bo‘lish xususiyatlarini ochib berish;

yoshlar ijtimoiy xavfsizligining antropologik asoslarini va uni ta’minlashda ijtimoiy adolat, ma’naviy immunitet va fuqarolik madaniyatining o‘zaro aloqadorligini asoslash;

global ijtimoiy-siyosiy tahdidlarning mohiyati, shakllanish omillari va namoyon bo‘lish shakllarini aniqlashtirish;

global tahdidlar ta’sirida milliy o‘zlik va qadriyatlar tizimida yuzaga keladigan ziddiyatlarni ochib berish hamda ijtimoiy moslashuvchanlik va xavfsizlik hissini shakllantiruvchi omillarni tahlil qilish;

milliy g‘oya va qadriyatlarning yoshlar ijtimoiy mas’uliyati hamda barqaror hayotiy pozitsiyasini shakllantirishdagi ahamiyatini asoslash;

O‘zbekistonda yoshlar ijtimoiy xavfsizligini ta’minlash imkoniyatlari va bu jarayonni takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida global ijtimoiy-siyosiy tahdidlar sharoitida yoshlar ijtimoiy xavfsizligini ta’minlash jarayonlari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini global ijtimoiy-siyosiy tahdidlar sharoitida yoshlar ijtimoiy xavfsizligini ta’minlashning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari, qadriyatlarga oid tamoyillari hamda shaxs, jamiyat va davlat munosabatlarida namoyon bo‘ladigan mexanizmlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik ilmiy bilish sotsiologik so‘rov usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

geosiyosiy beqarorlik, axborot manipulyatsiyasi va madaniy ekspansiya shaklida namoyon bo‘luvchi global ijtimoiy-siyosiy tahdidlar jamiyatda milliy g‘oyaga ishonchning susayishi bilan bog‘liq ideologik, qadriyatlar iyerarxiyasi hamda axloqiy mezonlarning beqarorlashuvida ifodalanuvchi aksiologik, ishonchli bilimni yolg‘on axborotdan farqlash mezonlarining buzilishida namoyon bo‘luvchi epistemologik inqirozlarni chuqurlashtirishi aniqlashtirilgan;

zamonaviy axborot muhitidagi hayotiy maqsadlar va qadriyatlar o‘rtasidagi uzilishlarda namoyon bo‘luvchi ma’naviy bo‘shliq, axloqiy baholash mezonlarining

vaziyat va shaxsiy manfaatga bo‘ysundirilishida ifodalanuvchi axloqiy relativizm hamda umumiy me’yorlarni shubha ostiga qo‘yuvchi postmodernistik g‘oyalar ta’sirida shakllangan ideologik zaiflik va identiklik inqirozi yoshlarning xavfsizlik hissini susaytirishi, hayotiy istiqboliga nisbatan noaniqlikni kuchaytirishi hamda sivilizatsion diskurslarning zaiflashuviga olib kelishi asoslab berilgan;

yoshlar ijtimoiy xavfsizligini mustahkamlashda milliy g‘oya va qadriyatlar asosida ijtimoiy identiklik, tarixiy xotira va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish, g‘oyaviy plyuralizm sharoitida turli qarashlarni dalillar asosida baholash bilan uyg‘unlashtirish hamda qarorlarni inson qadr-qimmati, adolat va mas’uliyat mezonlarida baholash tamoyillari ochib berilgan;

Yangi O‘zbekistonda yoshlar ijtimoiy xavfsizligini ta’minlashning ta’lim, bandlik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga doir imkoniyatlari, ijtimoiy adolat va institutsional ishonchni mustahkamlash, ma’naviy immunitet hamda fuqarolik mas’uliyatini rivojlantirishga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlari hamda ularni amalga oshirishning ehtiyojlarni aniqlash, manzilli yordam ko‘rsatish, yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va davlat–fuqarolik jamiyati–oila hamkorligini muvofiqlashtirish mexanizmlarini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yoshlar ijtimoiy xavfsizligini baholashda ularning ta’lim va mehnat imkoniyatlaridan foydalanishini ifodalovchi ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy institutlarga ishonchini aks ettiruvchi institutsional, mustaqil qaror qabul qilishini tavsiflovchi shaxsiy avtonomiya hamda fuqarolik ishtirokini belgilovchi ijtimoiy faollik mezonlari taklif etilgan;

yoshlarning ijtimoiy mas’uliyati hamda barqaror hayotiy pozitsiyasini mustahkamlashning tarixiy xotira va madaniy merosni o‘rganish orqali milliy o‘zlikni anglashini chuqurlashtirish, inson qadr-qimmatiga hurmat va bag‘rikenglikni kundalik me’yorga aylantirish, siyosiy qarorlar muhokamasida ishtirokini kengaytirish, ko‘ngillilik va ijtimoiy tashabbuslar orqali hamjihatlik hamda o‘zaro yordam tajribasini rivojlantirish, mustaqil tanlovini asoslash va uning oqibatlarini baholash orqali shaxsiy javobgarligini oshirish yo‘nalishlari belgilangan;

O‘zbekistonda yoshlar ijtimoiy xavfsizligini ta’minlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan yoshlarning ehtiyojlarini mahalla va ta’lim muassasasi hamkorligida aniqlash, ijtimoiy yordamni ushbu ehtiyojlarga muvofiq tashkil etish hamda davlat, fuqarolik jamiyati institutlari va oilaning o‘zaro hamkorligini takomillashtirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo’llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma’lumotlar, sotsiologik so’rov natijalariga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o’tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo’yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo‘lib,

tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarning ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ilgari surilgan konseptual g‘oyalardan yoshlar ijtimoiy xavfsizligining falsafiy mazmunini shaxsning himoyalanganligi, erkin rivojlanishi va ijtimoiy ishtiroki o‘rtasidagi aloqadorlikda aniqlashtirish, global ijtimoiy-siyosiy tahdidlarning yoshlar identikligi, qadriyatlari va xavfsizlik hissiga ta’sirini tushuntirishda, shuningdek, ijtimoiy adolat, ma’naviy immunitet va fuqarolik madaniyatining xavfsizlikni ta’minlashdagi o‘zaro bog‘liqligini yoritish, xavfsizlik ehtiyoji bilan erkinlik va mas’uliyat munosabatini chuqurroq anglash hamda ushbu yo‘nalishdagi jtimoiy-falsafiy izlanishlarning konseptual asoslarini boyitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan mahallalar, ta’lim muassasalari hamda yoshlar bilan ishlovchi tashkilotlar faoliyatida yoshlarning ehtiyojlarini aniqlash, ularga ko‘rsatiladigan yordamning manzilliligini kuchaytirish va ijtimoiy tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashda, yoshlar ijtimoiy xavfsizligiga oid muammolarni o‘rganish, mas’ul subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda amalga oshirilayotgan choralarning natijadorligini baholashda, shuningdek, “Ijtimoiy falsafa”, “Globallashuv falsafasi” va “Ma’naviyat asoslari” fanlari mazmunini boyitishda, tanqidiy tafakkur, axborot madaniyati va fuqarolik mas’uliyatini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv-uslubiy materiallarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Global ijtimoiy-siyosiy tahdidlar sharoitida yoshlar ijtimoiy xavfsizligini ta’minlashning falsafiy xususiyatlarini tadqiq etish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

geosiyosiy beqarorlik, axborot manipulyatsiyasi va madaniy ekspansiya shaklida namoyon bo‘luvchi global ijtimoiy-siyosiy tahdidlar jamiyatda milliy g‘oyaga ishonchning susayishi bilan bog‘liq ideologik, qadriyatlar iyerarxiyasi hamda axloqiy mezonlarning beqarorlashuvida ifodalanuvchi aksiologik, ishonchli bilimni yolg‘on axborotdan farqlash mezonlarining buzilishida namoyon bo‘luvchi epistemologik inqirozlarni chuqurlashtirishiga oid taklif va xulosalardan Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan A-OT-2021-11-raqam “O‘zbek xalqi diniy va milliy qadriyatlari kompleksining elektron-transditsiplinar platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasi vazifalarini amalga oshirishda foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 28-noyabrdagi 04/11-28839-son ma’lumotnomasi). Natijada, amaliy loyiha mazmunini takomillashtirish, yoshlarni ijtimoiy tahdidlar va zararli axborot ta’siridan himoyalashga doir yondashuvlarni boyitish hamda ularning global ijtimoiy-siyosiy tahdidlarga nisbatan shaxsiy pozitsiyasini rivojlantirishga xizmat qilgan;

zamonaviy axborot muhitidagi hayotiy maqsadlar va qadriyatlar o‘rtasidagi uzilishlarda namoyon bo‘luvchi ma’naviy bo‘shliq, axloqiy baholash mezonlarining vaziyat va shaxsiy manfaatga bo‘ysundirilishida ifodalanuvchi axloqiy relativizm hamda umumiy me’yorlarni shubha ostiga qo‘yuvchi postmodernistik g‘oyalar ta’sirida shakllangan ideologik zaiflik va identiklik inqirozi yoshlarning xavfsizlik

hissini susaytirishi, hayotiy istiqboliga nisbatan noaniqlikni kuchaytirishi hamda sivilizatsion diskurslarning zaiflashuviga olib kelishiga doir ilmiy xulosalardan O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining 2025-2029 yillarga mo‘ljallangan saylovoldi dasturidagi 3.3. “Partiyaning yoshlarga oid siyosati”, 3.4. “Sog‘lom va faol hayotni ta’minlash, millat genofondini saqlash”, 6.1. “Xavfsiz milliy axborot makonini rivojlantirish” bandlari ijrosini ta’minlash hamda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar ssenariylarini tayyorlash va amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi Markaziy kengashining 2025-yil 11-dekabrdagi 02-06-117-son ma’lumotnomasi). Natijada, targ‘ibot tadbirlarining mazmunini boyitish, yoshlarda milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik va mehnatsevarlik tuyg‘ularini rivojlantirish, muloqot madaniyati, ogohlik hamda hushyorlikni shakllantirishga xizmat qilgan;

yoshlar ijtimoiy xavfsizligini mustahkamlashda milliy g‘oya va qadriyatlar asosida ijtimoiy identiklik, tarixiy xotira va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish, g‘oyaviy plyuralizm sharoitida turli qarashlarni dalillar asosida baholash bilan uyg‘unlashtirish hamda qarorlarni inson qadr-qimmati, adolat va mas’uliyat mezonlarida baholash tamoyillariga oid ilmiy xulosa hamda tavsiyalardan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2024-yil ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi III yo‘nalishining 19-bandida nazarda tutilgan zamonaviy va ta’sirchan targ‘ibot texnologiyalarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etishga doir targ‘ibot ishlarini tashkil etish va o‘tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutining 2025-yil 5-dekabrdagi 10/826-son ma’lumotnomasi). Natijada, targ‘ibot faoliyatida global ijtimoiy-siyosiy tahdidlar sharoitida yoshlar ijtimoiy xavfsizligini ta’minlashning xususiyatlarini yoritish va tahlil qilishga xizmat qilgan;

Yangi O‘zbekistonda yoshlar ijtimoiy xavfsizligini ta’minlashning ta’lim, bandlik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga doir imkoniyatlari, ijtimoiy adolat va institutsional ishonchni mustahkamlash, ma’naviy immunitet hamda fuqarolik mas’uliyatini rivojlantirishga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlari hamda ularni amalga oshirishning ehtiyojlarni aniqlash, manzilli yordam ko‘rsatish, yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va davlat–fuqarolik jamiyati–oila hamkorligini muvofiqlashtirish mexanizmlarini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2025-yilga mo‘ljallangan chora-tadbirlar dasturi ijrosini ta’minlash hamda yoshlarning ma’naviy-mafkuraviy dunyoqarashini kengaytirishga qaratilgan targ‘ibot ishlarida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2025-yil 9-dekabrdagi 2-13-21-6814-son ma’lumotnomasi). Natijada, yoshlarning turli tahdidlar mazmun-mohiyatini to‘g‘ri anglashi, ularga qarshi turishda milliy qadriyatlarga tayanishi hamda ma’naviy-madaniy tadbirlar samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan

ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola (3 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, ush bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya umumiy hajmi 119 betdan iborat**.**

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob’yekti, predmeti, tadqiqotda qo‘llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Yoshlar ijtimoiy xavfsizligini ta’minlashning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida ijtimoiy xavfsizlikning falsafiy mazmuni, uning yoshlar hayotidagi xususiyatlari va antropologik asoslari tadqiq etilgan hamda yoshlar ijtimoiy xavfsizligini ta’minlashda ijtimoiy adolat, ma’naviy immunitet va fuqarolik madaniyatining o‘zaro aloqadorligi ochib berilgan.

Ijtimoiy xavfsizlik insonning tinch yashashi, o‘z manfaatlarini qonuniy amalga oshirishi va jamiyat bilan barqaror munosabat o‘rnatishi uchun zarur sharoitlarni ifodalaydi[7]. Yoshlar hayotida bu sharoitlar ta’lim, kasbiy shakllanish, ijtimoiy mansublik va kelajakka ishonch bilan chambarchas bog‘liq. Shaxsning jismoniy himoyalanganligi uning o‘zini jamiyatga kerakli deb his etishi, huquqlaridan foydalanishi yoki mustaqil hayotiy maqsadlarini belgilashi bilan har doim ham bir xil darajada namoyon bo‘lmaydi.

Tadqiqotda ijtimoiy xavfsizlik shaxs, jamiyat va davlat munosabatlarida shakllanadigan, ijtimoiy institutlar, qadriyatlar hamda muloqot vositasida yoshlarning o‘zligi, ma’naviy barqarorligi va fuqarolik faolligini himoya qilishga xizmat qiladigan holat sifatida asoslab berilgan. Bunday yondashuvda xavfsizlik jamiyatning rivojlanish imkoniyatlari bilan bog‘lanadi. Yosh inson bilim olishi, mehnat qilishi va o‘z tashabbusini amalga oshirishi mumkin bo‘lgan muhitda himoyalanganlikning amaliy mazmuni kengayadi. Xavfsizlikning barqarorligi esa mazkur imkoniyatlarning uzluksizligi va ulardan foydalanishdagi adolatga bog‘liq bo‘ladi. Mazkur hodisani tushuntirishda tizimli, aksiologik va antropologik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. *Tizimli yondashuv* ta’lim, oila, davlat va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi. *Aksiologik yondashuv* yoshlarning xatti-harakatini yo‘naltiruvchi qadriyatlar va axloqiy mezonlarga e’tibor qaratadi. *Antropologik yondashuvda* esa xavfsizlik

[7] Kenjayev Sh. “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish: islohot va imkoniyatlar” // Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta’limning o‘rni hamda rivojlanish omillari. — 2025. — №1. – B. 244.

insonning yashash, tan olinish, o‘zligini anglash va kamol topish ehtiyojlari bilan izohlanadi.

Dissertant fikricha, xavfsizlikning obyektiv shart-sharoitlari bilan xavfsizlik hissi o‘rtasidagi farq ham muhimdir. Birinchisi huquqiy himoya, ta’lim va mehnat imkoniyatlari, ijtimoiy yordam hamda institutlar faoliyati orqali namoyon bo‘ladi. Ikkinchisi insonning ushbu sharoitlarni qanday qabul qilishi, o‘z kelajagiga qay darajada ishonishi va zarurat tug‘ilganda yordam olishiga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi. Rasmiy kafolatlar kundalik hayotda ishlamasa, ularning mavjudligi himoyalanganlik hissini yetarlicha mustahkamlay olmaydi.

Dissertatsiyada keltirilgan sotsiologik so‘rov natijalarida ham axborot muhitiga oid xavotirlar sezilarli o‘rin egallaydi. Xavf manbalari haqidagi savolga 2465 nafar respondent, ya’ni ishtirokchilarning 44,9 foizi internetni ko‘rsatgan. Internetdagi xavflar xususidagi savolda 2469 nafar respondent (45%) – kiberjinoyatchilik va internetga qaramlikni, 1519 nafar respondent (27,7%) – yolg‘on xabarlar va feyklarni belgilagan. Ushbu ko‘rsatkichlar so‘rov ishtirokchilarining xavfni idrok etish xususiyatlarini ifodalaydi. Ular axborotni tekshirish, raqamli muhitdagi xulq-atvor va ma’naviy-ruhiy himoya masalalarini birgalikda ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Yoshlar xavfsizligining antropologik talqinida insonning tabiiy himoyaga intilishi ijtimoiy tajriba orqali ongli faoliyatga aylanishiga e’tibor qaratiladi. Himoya instinkti xavfdan saqlanishga undaydi, biroq xavfning mazmunini aniqlash va unga munosib javob tanlash bilim, tarbiya hamda qadriyatlarga bog‘liq. Shu sababli shaxs xavfsizligini biologik refleks bilan tushuntirish uning ijtimoiy tabiatini birmuncha cheklaydi. Inson hayotini saqlashga intilish bilan birga, qanday yashashi, nimani qadrlashi va jamiyatda qanday o‘rin egallashi haqida ham mulohaza yuritadi. Yoshlik davrida mansublik, e’tirof va o‘zini namoyon qilish ehtiyojlari xavfsizlik masalasi bilan bevosita tutashadi. Ushbu ehtiyojlar ta’lim, mehnat, ijod va mazmunli muloqot orqali qondirilganda shaxsning ijtimoiy aloqalari mustahkamlanadi. Aksincha, yosh inson o‘z imkoniyatlariga mos faoliyat topa olmasa yoki fikri e’tiborsiz qoldirilsa, jamiyat bilan munosabatida begonalashuv paydo bo‘lishi mumkin. Demak, xavfsizlikni ta’minlashda tahdidni bartaraf etish bilan birga, shaxsning ma’naviy va ijtimoiy ehtiyojlariga javob beradigan muhit yaratish ham ahamiyatlidir.

Dissertatsiyada xavfsizlikning biologik, ijtimoiy va ma’naviy omillari o‘zaro bog‘liq holda tadqiq etilgan. *Biologik* omillar hayot va sog‘liqni saqlash bilan, *ijtimoiy* omillar ta’lim, institutlar hamda muloqot bilan, *ma’naviy* omillar esa o‘zlikni anglash, axloqiy tanlov va mas’uliyat bilan ifodalangan. Bu jarayonda shaxsni himoyalash uning tashabbusi va mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini ham rivojlantirish lozim. Adolat yoshlarning huquqlari, imkoniyatlari va mehnati qanday e’tirof etilishida namoyon bo‘ladi. Ma’naviy immunitet turli ta’sirlarga nisbatan qadriyatlarga tayangan munosabatni shakllantiradi. Fuqarolik madaniyati esa bu munosabatni huquqiy savodxonlik, jamoatchilik ishtiroki va mas’uliyatli faoliyat orqali amaliyotga olib chiqadi. Mazkur omillarning o‘zaro ta’siri shaxsning ichki barqarorligi bilan jamiyatdagi ishonch muhitini oshiradi.

Dissertant mazkur tadqiqotida yoshlarning ijtimoiy xavfsizligini tushuntirish uchun "*adaptiv xavfsizlik modeli*"ni taklif etadi. Taklif etiladigan modelga ko‘ra, yoshlarning ijtimoiy xavfsizligi ijtimoiy tizimning uch darajadagi o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. *Birinchi daraja* – institutsional daraja bo‘lib, u davlat siyosati, ta’lim tizimi, madaniy muhit va ijtimoiy institutlar faoliyatini o‘z ichiga olad; *ikkinchi daraja* – ijtimoiy-madaniy daraja bo‘lib, unda jamiyatning qadriyatlar tizimi, milliy identitet va ijtimoiy ong shakllanishi muhim rol o‘ynaydi; *uchinchi daraja* – individual-psixologik daraja bo‘lib, unda yoshlarning shaxsiy tajribasi, ruhiy barqarorligi va ijtimoiy identifikatsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu uch darajaning o‘zaro uyg‘unligi yoshlarning global tahdidlar sharoitida barqaror ijtimoiy pozitsiyani egallashiga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan *ijtimoiy xavfsizlik – bu jamiyatda mavjud ijtimoiy institutlar, ma’naviy qadriyatlar va kommunikativ munosabatlar tizimi orqali yosh avlodning ijtimoiy identiteti, ma’naviy barqarorligi va fuqarolik faolligini himoya qiluvchi hamda jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlovchi ko‘p darajali ijtimoiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladigan kompleks ijtimoiy-falsafiy holatdir*.

Dissertant fikricha, ma’naviy immunitetning ta’sirchanligi targ‘ib qilinayotgan qadriyatlarning real munosabatlarda tasdiqlanishiga ham bog‘liq. Yoshlar adolat va halollik haqida eshitib, kundalik hayotda ularga zid holatlarni muntazam kuzatsa, tarbiyaviy ishlarning samaradorligi pasayadi. Shuning uchun ma’naviy tarbiyani ijtimoiy muhitdagi muammolardan ajratish mumkin emas. Xuddi shuningdek, huquqiy imkoniyatlarning mavjudligi ulardan ongli foydalanish va umumiy manfaat uchun harakat qilish madaniyati bilan to‘ldirilishi kerak.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, birinchidan, yoshlar jamiyatning eng faol va tez o‘zgaruvchan qatlamini tashkil etadi. Yangi g‘oyalar, innovatsiyalar va madaniy yangiliklarni ular boshqalardan oldinroq qabul qiladi hamda ijtimoiy o‘zgarishlarni tezlashtiradi. Ikkinchidan, axborot makonining kengayishi, madaniy o‘zgarishlar, raqamli muhit va yangi tahdidlar yoshlar xavfsizligi muammosini yildan-yilga murakkablashtirmoqda. Buning natijasida yoshlar ongiga mafkuraviy, psixologik va axborot bosimi ortib bormoqda. Yoshlar xavfsizligi uni ta’minlash yoshlardagi tabiiy himoya instinktini ijtimoiy institutlar yordamida qo‘llab-quvvatlash, ularning ma’naviy ehtiyojlarini qondirish hamda erkinlik va xavfsizlik o‘rtasidagi muvozanatni saqlashni nazarda tutadi. Uchinchidan, ma’naviy immunitetni mustahkamlash, ijtimoiy adolatni ta’minlash va fuqarolik madaniyatini rivojlantirish jamiyat xavfsizligining strategik ustuvor yo‘nalishlari sifatida qaralib, ularning kompleks va tizimli rivoji barqaror taraqqiyotning muhim kafolati hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Global ijtimoiy-siyosiy tahdidlarning yoshlar ijtimoiy xavfsizligiga ta’sir etish xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida geosiyosiy beqarorlik, axborot urushlari va madaniy ekspansiyaning yoshlar ongi, identikligi hamda xavfsizlik hissiga ta’siri aniqlashtirilgan, tahdidlarning namoyon bo‘lish shakllari shaxs dunyoqarashida yuzaga keltiradigan o‘zgarishlari bilan bog‘liq holda tadqiq etilgan.

Global tahdidlarning xususiyati ularning siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar bilan tutashib ketganida namoyon bo‘ladi[8]. Geosiyosiy beqarorlik xalqaro munosabatlardagi kuchlar nomutanosibligi va manfaatlar to‘qnashuvi orqali yuzaga chiqsa, axborot urushlari voqealarning talqini, jamoatchilik bahosi va ijtimoiy kayfiyatga ta’sir ko‘rsatadi. Madaniy ekspansiya sharoitida esa milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va o‘zlikni anglash mezonlari bosim ostida qoladi.

Dissertant fikricha, geosiyosiy beqarorlikning yoshlar hayotidagi ta’siri kelajakka oid noaniqlik orqali ham namoyon bo‘ladi. Xalqaro qarama-qarshiliklar haqidagi axborot shaxsning ta’lim, kasb, mehnat va hayotiy rejalarga munosabatida aks etishi mumkin. Bunday vaziyatda tashqi hodisa bilan uning ongdagi talqinini farqlash zarur. Bir xil voqea turli axborot manbalari orqali turlicha tasvirlanadi va yosh insonning unga munosabati esa mavjud bilimi, qadriyatlari va ijtimoiy tajribasiga tayanadi. Demak, tahdid ta’sirining ko‘lami uning obyektiv xususiyatlari bilan bir qatorda, talqin qilinish usullariga ham bog‘liqdir. Xabarlar sonining ortishi bilimning chuqurlashuvini har doim ham ta’minlamaydi. Dalil bilan hissiy munosabat aralashib ketgan sharoitda voqeani tushunish o‘rnini tezkor reaksiya egallashi mumkin. Shaxs o‘z qarashlariga mos axborotni tanlab, muqobil dalillarni e’tibordan chetda qoldirsa, uning axborotiy tajribasi torayadi.

Tahdidlarning eng xavflisi bu axborot urushlari bo‘lib, u zamonaviy informatsion texnologiyalar orqali ijtimoiy ongni manipulyatsiya qilishga qaratilgan strategik usul sifatida keng qo‘llanilmoqda. A.D.Ursul bu borada shunday deydi: “Axborot urushlari – bu zamonaviy jamiyatning ong va ma’naviy suverenitetini buzish, unga begona maqsadlarni singdirish orqali amalga oshirilayotgan g‘oyaviy diversiyadir”[9]. Darhaqiqat, axborot xurujlari jamoaviy idrokni zaiflashtiradi, haqiqat va yolg‘on chegarasini buzadi, shaxsni axborot izolyatsiyasiga olib kiradi, bu esa ijtimoiy indifferentlik, loqaydlik va axloqiy parokandalikni yuzaga keltiradi. Madaniy ekspansiya esa ko‘rinmas tarzda, “ommaviy madaniyat” niqobi ostida mahalliy qadriyatlar tizimini yemirishni nishonga olgan g‘oyaviy bosqinchilik sifatida ifodalanadi. Sh.Paxrutdinov bu jarayonni shunday ifodalaydi: “Madaniy ekspansiya – bu begona qadriyatlarning ichki jamiyatga singdirilishi orqali milliy identitetni yo‘q qilishga qaratilgan ongli ideologik jarayondir”[10]. Dissertantning mualliflik ta’rifiga ko‘ra t*ahdid bu – borliqdagi qarama-qarshilik, ziddiyatlar natijasida yuzaga keladigan, jamiyatdagi mavjud tizimni ichki, tashqi tomonlariga zarar yetkazadigan obektiv omillarni mavjudligini aks ettiruvchi falsafiy tushunchadir. Global tahdidlar esa – bu butun insoniyat yoki bir nechta mintaqalarni qamrab oluvchi, xalqaro xavfsizlik, barqaror rivojlanish va davlat suverenitetiga jiddiy xavf tug‘diruvchi omillardir*.

Tadqiqotda madaniy ekspansiyaning tahlil etish asosida madaniy o‘zlikni saqlash bilan dunyo tajribasiga ochiqlik o‘rtasidagi munosabat ochib berilgan. Milliy madaniyatning ijtimoiy ahamiyati pasaytirilishi, tarixiy xotiraning

[8] Axmedova D.S. Globalizatsiya sharoitida yoshlarning ma’naviy-axloqiy qarashlaridagi o‘zgarishlar // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. -2025. — 5-jild, № 12. — B. 175-179.

[9] Урсул А.Д. Информационная безопасность в глобализирующемся мире. – Москва.: “Логос”, 2003. –С. 127–128.

[10] Пахрутдинов Ш. “Таҳдид” тушунчаси: назария ва амалиёт. – Тошкент.: “Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти”, 1998. –В. 7.

biryoqlama talqin qilinishi va tashqi andozalarning mutlaqlashtirilishi yoshlarning o‘z merosiga munosabatini o‘zgartirib yuboradi. Biroq madaniy muloqotning o‘zi begonalashuvni keltirib chiqarmaydi. Masala yosh insonning turli tajribalarni qanday baholashi va ularni o‘z dunyoqarashi bilan qay tarzda bog‘lashidadir.

Dissertatsiyada global tahdidlarning o‘zaro bog‘liq uchta ta’sir yo‘nalishi asoslangan. *Ideologik* yo‘nalishda umumiy maqsad va g‘oyalarga ishonch susayadi, *aksiologik* yo‘nalishda qadriyatlar iyerarxiyasi hamda axloqiy baholash mezonlari beqarorlashadi hamda *epistemologik* yo‘nalishda esa ishonchli bilimni yolg‘on yoki manipulyativ axborotdan farqlash qiyinlashadi. Milliy identiklikdagi noaniqlik, o‘zligiga ishonchsizlik va ma’naviy bo‘shliq shu munosabatlar doirasida izohlangan. Ma’naviy inqiroz, mafkuraviy bo‘shliq va g‘oyaviy manipulyatsiya bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, aynan bir hodisani anglatmaydi. Ma’naviy inqiroz qadriyatlarning hayotiy yo‘nalish berish imkoniyati zaiflashganida namoyon bo‘ladi. Mafkuraviy bo‘shliq umumiy maqsadlar, e’tiqod va ijtimoiy mansublikni bog‘lovchi g‘oyalarning ta’sirchanligi susayishi bilan tavsiflanadi. G‘oyaviy manipulyatsiya esa insonning ehtiyojlari, xavotirlari va tan olinishga intilishidan foydalanib, uning fikri hamda xatti-harakatiga yashirin ta’sir ko‘rsatishga qaratiladi.

Tahdidlarning ongga ta’siri bosqichma-bosqich kechadigan jarayon hisoblanadi. Dastlab axborot qabul qilinadi, keyin u mavjud bilim va qadriyatlar asosida talqin etiladi. Navbatdagi bosqichda shaxs ma’lum qarash yoki guruh bilan o‘zini bog‘laydi, buning natijasida uning g‘oyaviy yo‘nalishi mustahkamlanishi yoxud noaniqlashishi mumkin. Mazkur izchillik axborotni qabul qilishning o‘zi zararli ta’sirga berilish degani emasligini anglatadi. Hal qiluvchi jihat xabarni talqin etishda qanday mezonlar ishlashi, shaxsda uni tekshirish va muqobil qarash bilan qiyoslash imkoniyati mavjudligidir. Identiklik inqirozining mazmuni yoshning o‘zini qaysi qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘lashini aniqlashdagi qiyinchiliklarda namoyon bo‘ladi. Shaxsiy intilishlar bilan jamiyat kutishlari o‘rtasidagi tafovut chuqurlashganida mansublik hissi zaiflashishi mumkin. Ma’naviy bo‘shliq esa hayotiy maqsadlarni asoslashda tayanch mezonlarning yetishmasligi bilan bog‘liqdir.

Dissertatsiyada ijtimoiy adaptatsiya, psixologik qarshilik va xavfsizlik hissining o‘zaro bog‘liqligi ham ochib berilgan. *Adaptatsiya* yoshlarning o‘zgarayotgan muhitda ijtimoiy aloqalar o‘rnatishi va o‘z faoliyatini tashkil etishiga xizmat qiladi. *Psixologik qarshilik* mafkuraviy bosim yoki axborot stressi sharoitida mustaqil pozitsiya va ichki muvozanatni saqlash imkoniyatini ifodalaydi. *Xavfsizlik hissi* esa insonning o‘zini qo‘llab-quvvatlangan deb bilishi hamda kelajagiga munosabatida namoyon bo‘ladi. Ushbu jihatlar birgalikda yoshlarning tahdidni anglashidan unga ongli javob berishigacha bo‘lgan jarayonni ifodalaydi.

Xavfsizlik hissining shakllanishida institutsional, ijtimoiy-madaniy va individual-psixologik sharoitlar farqlanadi. Institutlar yordam va himoya imkoniyatlarini yaratsa, qadriyatlar va madaniy mansublik voqealarni baholashga yo‘nalish beradi. Shaxsiy tajriba esa bu imkoniyatlarning qanday qabul qilinishiga ta’sir etadi. Shu bois yoshlarning bardoshliligini faqat iroda yoki shaxsiy fazilat bilan izohlash yetarli emas.

